

TILNING SISTEMAVIY XARAKTERI VA UNING BELGI SIFATIDAGI TABIATI

Maxmudjonova Muborak Farxodjon qizi
Namangan davlat universiteti filologiya
fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilning tizim sifatidagi xususiyatlari hamda semiotik tabiati haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: til, sistema, belgi, semiotika, til birliklari, til belgisi, sistemstruktur tilshunoslik.

Tilning sistemaviyligi haqida soʻz ketganda, avvalo, sistemaning xususiyatlariga toʻxtalish oʻrinlidir. Oʻzaro bogʻliq va shartlangan ikki va undan ortiq elementlarning munosabatlaridan tashkil topgan va yangi sifatga ega boʻlgan barqaror butunlik sistemadir [1]. Til birliklari voqelanish belgisiga koʻra ham, tuzilish (ontologik) tabiatiga koʻra ham sistema sanaladi va u mavhum belgilardan tuzilgan. Har bir sohaning oʻziga xos guruhlari sistemasi bor. Masalan, fonetikaning oʻziga xos birliklari bor yoki morfologiyadagi har bir konkret forma ziddiyatli sistemaga ega. Chunonchi, oʻzbek tilida -(i)m, -(i)ng, -i/si; -(i)miz, -(i)ngiz, -lari qoʻshimchalarining oʻrnida boshqa birini qoʻllab boʻlmaydi. Bu xususiyat ularning qarama-qarshi jihatlarini ifodalasa, boshqa bir tomondan ular bir guruh sifatida muayyan predmetning boshqa bir predmetga qarashli ekanligini koʻrsatadi. Aynan bu belgilar bilan ular bir sistemani tashkil qiladi. Sistema boʻlgan joyda, albatta, struktura ham boʻladi. Sistema butunlik, struktura esa qismlilikdir. Tilning strukturasi til birliklari sanalgan fonema, morfema, leksema va modellardan iborat. Amerika tilshunosligi til struktura tuzilishi nazariyasini birinchi navbatda gap tuzilishi va undagi maʼlumotlarni oʻrganishga asoslangan holda ishlab chiqdi [T.Bushuy, 2011:224]. Til soʻz, morfema va fonemalarning oddiy yigʻindisi emas, balki butun bir tizim boʻlib, u har bir pogʻonaga xos birlik 2 yoki undan ortiq uzvlarning oʻzaro munosabatidan tashkil topgan butunlikdir. Tilning turli qirralarini jamlagan holda, uni butunlik, bir sistema sifatida oʻrganuvchi tilshunoslik XX asrning 20-yillaridan sistemstruktur tilshunoslik nomi bilan mashhur boʻldi. Shuni ham aytib oʻtish joizki, Ferdinand de Sossyur asos solgan XX asr system tilshunosligi bagʻrida oʻnlab oqim va maktablar vujudga keldi, bu sohada ulkan zamonaviy yutuqlar qoʻlga kiritildi.[2]

Til semiotika nuqtayi nazaridan belgilar sistemasi sanaladi. Semiotika axborot, maʼlumotlarni saqlash va uzatishga xizmat qiluvchi belgilar tizimini oʻrganuvchi sohadir. Semiotikaning umumiy qoidalari, xususiyatlari dastlab amerikalik mantiqshunos Ch.S.Pire va tilshunos F.De. Sossyur asarlarida yoritilgan. Ferdinand de Sossyur tilning sistemaviy xarakteri va uning belgi sifatidagi tabiatini asoslab berdi. Til belgisi (belgi tanlashga nisbatan) shartli va erkin, lekin boshqa bir tomondan, yaʼni jamiyat uchun majburiydir. Olim til belgisi nazariyasini yaratib, uni sintagmatik va paradigmatic tushunchalar bilan bogʻladi. uning taʼrificha, tilshunoslik fanining manbasi shartli ishoraznaklar tizimi boʻlgan tilni oʻrganishdir. Shu bois tilshunoslik ishoralarni oʻrganadigan semiotik fanlar turkumiga kiradi. Ferdinand de Sossyur: “Til gʻoyalarni ifodalovchi belgilar sistemasidir” degan gʻoyani ilgari surdi. Til axborot beradi. Avvalo, oʻzi va shu bilan birga borliqdagi boshqa narsa-buyum, hodisalar haqida maʼlumot beruvchi vositalar, yaʼni sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi.[3] Belgi moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet, voqea yoki harakatdir. Belgi tushunchasi serqirra, u falsafa, mantiq, tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya fanlari tomonidan tahlil qilinadi. Til belgisi esa ifoda va mazmun jihatiga ega boʻladi, predmet, xossa, munosabatni ifodalovchi moddiy-ideal hosila sanaladi. Til fikr, maʼno, tushunchalarning ramziy belgisi boʻlib keladi va jamiyatda

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

mavjud boshqa belgilar bilan umumiylikka, o’xshashlikka ega. Tilning ma’nolar tashuvchi belgilar sistemasi ekanligi fiziologik jarayonda voqelanadi. Shu bois tilshunoslik va semiotika fanlari ham o’zaro uzviy bog’liq bo’lib, ularning o’zaro munosabatidan tilni belgilar sistemasi sifatida o’rganadigan lingvosemiotika fani ham yuzaga kelgan. U tildagi belgilar tizimini boshqa lisoniy belgilar va ramzlar bilan qiyoslab o’rganadi.[2]

Bugungi kunda tilshunoslikda “til va nutq” dixotomiyasiga asoslangan tadqiqot ishlari ancha bo’lishiga qaramay, til belgilarining nutqqa ko’chirilishi bilan bog’liq muammolar endigina o’rganilmoqda. Bu sohada izlanilishi lozim bo’lgan ko’p masalalar bor.

Ko’rinadiki, tilning sistemaviy tuzilishi murakkab, ko’p tarmoqli hodisa, til belgisi esa mazkur sistemani tashkil etuvchi omil hisoblanadi. Til sistemasi keng ma’noda til qurilishining barcha sohasining majmuyidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. O’quv qo’llanma. – Toshkent: 2019.
- 2.Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: 2007.
- 3.Turniyozov N. Tilshunoslikka kirish (ma’ruzalar matni). – Samarqand:2006.
4. Turobov A. Tilshunoslik nazariyasi. – Samarqand: 2022.
5. arxiv.uz